

XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Abduqodirova Nazira Xoliknazarovna
Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Saypillayeva Hilola Barot qizi
Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Bugungi avlodning rivojlanishi va kamol topishida, eng avvalo, xalq tajribalariga asoslangan holda ularni bugungi kun taraqqiytiga har tomonlama bardoshli qilib yetishtirish davr talabiga aylanmoqda. Chunki tarixini bilmagan, bugunini o'ylamagan har bir inson ertasini qura olmaydi. Shu sababli ta'lim-tarbiyaga juda jiddiy masala sifatida e'tibor qaratsak, har qamday sharoitga mos barkamol shaxs yetishtirgan bo'lamiz.

Kalit so'zlar: xalq pedagogikasi, ta'lim-tarbiya, ahloqiy tarbiya, oila.

Bizga ma'lumki, har bir xalqning, elatning, yurtning o'zining asrlar davomida shakllanib, ildiz otib kelayotgan o'z tarixi bor. Hozirgi rivojlangan, axborot oqimi kuchaygan, har taraflama ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy ta'sirlar o'rab olgan ayni bir davrda yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash masalasi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Shu sababli o'tmish tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifasiga aylanib kelmoqda. O'sib kelayotgan avlodni har tomonlama hayotga tayyorlashda ko'p asrlik xalq tajribasiga asoslangan holda "Qachon?, Qanday?, Qanaqa qilib?" – degan masala qizg'in munozara baxsga sabab bo'layapti.

Xalq pedagogikasida hayotiy (maishiy, mehnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, muomala jarayonida o'zlashtirilib kelinadi. Xalq pedagogikasi tarixiy va ijtimoiy tajriba mahsuli va shu bilan birga ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili hisoblanadi. Shu sababli ham o'tmish tajribalarini bilmay turib, bugungi kundagi ta'lim-tarbiyada yuzaga kelayotgan muammolarni yechib bo'lmaydi. Milliy pedagogika xalqning ta'lim-tarbiya masalasidagi qarashlari, go'yalari asosida shakllanadi. U o'z ifodasini xalq pedagogikasini amaliyotda sinalgan va yosh avlodni tarbiyalash borasida amaliy ahamiyatligida togan.

Xosh! Biz tarbiyani qachon va qaysi vaqtda boshlashimiz kerak? O'zbek xalqida shunday bir naql bor – chaqaloq hali yetuk shaxs emas, u hali o'sib ulgaygan vaqtda kim bo'ladi?, qanday shaxs bo'lib yetishadi? Bu hali noma'lum. Chunki chaqaloqning barkamol va komil inson bo'lib yetishishida unga bir nechta omillar, ya'ni, ota-onasi, ijtimoiy muhit, tengdoshlari va shu kabi boshqalar ta'siri natijasida shakllanib boraveradi. Shuning uchun ham xalq pedagogikasi avvalgi avlodlar tomonidan

erishilgan, ishlab chiqarilgan turli ong shakllarini o'zlashtirsagina go'dak insonga aylanadi, har tomonlama barkamol shaxs bo'lib rivojlanadi. Bolaning tug'ilishi bilan uni o'z holicha tashlab qo'yishlik bilan xalq haotini va yurt kelajagini ravnaq toptirib bo'lmaydi.

Xalq pedagogikasini o'rganishga S.R.Rajabov, A.Ismoilov, I.Obidova, S.Temurova, M.Ochilova, A.Otayeva va shu kabi olimlar o'z hissalarini qo'shgan. Bu olimlarning o'rganishlari va kuzatishlari natijasi sifatida xalq pedagogikasini quyidagi yo'nalishlarga bo'lish muimkin:

- bolaning ahloqiy, aqliy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasining o'zaro aloqasi asosida har tomonlama rivojlanishi g'oyasi;
- shaxsning tariyalanishida oilaviy tarbiyaning yetakchi rolini belgilash;
- xalq pedagogikasi usul va tamoyillarining xalq ijodi namunalarida mujassamlashuvi;
- ta'lim-tarbiyaning pedagogik usullarini birlashtirish;
- xalq pedagogikasining amaliy xarakteri;
- xalq pedagogikasining o'sib kelayotgan avlodni aniq amaliy fuqarolik, oila faoliyatiga tayyorlashdagi ijtimoiy roli.

Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyatidagi eng yaxshi qadryatlarini mujassamlashtirgan: kattalarga hurmat, yuqori axloqiy fazilatlar, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va albatta o'zaro totuvlik. Sobiq sho'ro tuzumi davrida bu kabi qadryatlarning va an'analarning toptalishi sababli ahloqiy holatlarning yomonlashuviga olib keldi. Shuning uchun ham milliy qadryatlar va an'analarni yana o'z holatiga va albatta bundada yaxshi natijaga olib chiqish uchun esa xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya masalalarini oilaviy munosabatlarda qaror toptirdi. Oila bu – jamiyat negizidir. Xalq pedagogikasida oila inson hayotida eng samarali tarbiya omili sifatida qaraladi. Oila farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda ham boshlang'ich vositasi sifatida ko'rilgan. Chunki bolalar o'zini qiziqtirgan har qanday masalalarda, avvalambor, ota-onalari bilan hamsuhbat bo'lishadi. Ayni shu yerda esa ota-onaning tarbiyaviy vazifalar aniqlanadi. Ot-ona bo'lish oson, lekin, yaxshi ota-ona bo'lish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. O'sib, rivojlanib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash bugungi kunda dolzabr masalaga aylanib borayotgan bir vaqt, ham hozirgi zamon talabiga mos ham o'tmish tajribalaridan foydalangan holda bolaga tarbiya berish, uni har tomonlama yetuk hamda barkamol shaxs bo'lib yetishishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan bo'lardi. Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, ta'lim-tarbiya biz uchun har doim eng muhim masalalardan biri bo'lmog'I lozim. Kelajak avlodning taqdiriga hech birimiz befarq bo'lmagan holda kecha kim edik-u, bugun kim bo'ldik kabi savollar qulog'imizda bod-

bod yangramog'i lozim. Yurt ravnaqi, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi va kelajagi uchun nafaqat biz, balki, barchamiz birdek qayg'urishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. SHarq, 1998 yil.
2. I.A.Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». Toshkent. 1998 yil.
3. H.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov «O'zbekxalqog'zakipoetikijodi». Toshkent. O'qituvchi, 1980 yil.
4. Qurboniyozova Z. «Dostonlar vositasida milliy o'zlikni anglash». Toshkent. Til va adabiyot, 2001 yil.
5. Jalilov T. «An'analar hayot sabog'i». Toshkent. O'zbekiston, 1992 yil.
6. Hoshimov K. Pedagogika tarixi.
7. Jumaniyozova R. Xalq ijodi. Toshkent. O'zbekiston, 1989 yil.
8. Khaliqnazarovna, A. N. (2019). FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

Internet saytlar:

1. www.bilim.uz.
2. www.edu.uz - Vazirlik sayti
3. www.ziyo.edu.uz - Vazirlik sayti 4. www.ziynet.uz